1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan-von, -voz aytilsa qam, qamma vaqt –bon, -boz tarzida yozilishi tavsiflangan: darvozabon, masxaraboz kabi. 2) Lekin-vachcha qo'shimchasi qamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi;

3) o'rin-payt kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining o'tgan zamon yasovchi va 111 shaxs ko'rsatkichi –di qo'shimchasining boshida undosh ba'zan t aytilsa qam, qamma vaqt d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmadi kabi.

«Soidalar»ning 37-bandida ayrim qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytili va yozilishi qakidagi imloviy ma'lumotlar quyidagicha tavsiflanadi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi –illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda –ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi –dir qo`shimchasi jarangli undosh Bilan tugagan bir bo`g`inli so`zlarga (kel so`zidan boshqa), shuningdek, z undoshi Bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo`shiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir, o`tkazdir, tomizdir kabi. Šolgan barcha qollarda bu qo`shimcha –tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir kabi;

3) jo`nalish kelishigi qushimchasi –ga chegara bildiruvchi –gacha ravishdosh shaklini yasovchi –gach, –guncha, –gani, –gudek, sifatdosh shaklini yasovchi –gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko`rsatkichi –gin, shuningdek, –gina qo`shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi Bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda bu qushimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: toka, yo`lakkacha, ko`nikkach, zerikkuncha, to`kkan, kechikkudek, bukan, ekan, kichikkina kabi;

b) q undoshi Bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda bu qo`shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo`rqudek, achchiqqina kabi;

v) qolgan barcha qollarda, so`z qanday tovush Bilan tugashidan va bu qo`shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat`iy nazar, g yoziladi: bargga, padagogga, bug`ga, og`gan, sig`guncha kabi.

ŠO`SHIB YOZISH IMLOSI VA UNING XUSUSIYATLARI

Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosidan lotin grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosida bu bobning xususiyatlari qam keskin farq qiladi. ular qaqida yuqorida qar ikala «qoidalar»ning tavsifiy xususiyatlari va ularning tafovutlari qaqidagi fikrlarimizda qisman bayon qilganmiz.

«Šoidalar»ning 38-bandida qo`shib yozish imlosi qaqida quyidagi ma`lumotlar berilgan: xona, noma, roya, bor, xush, qam, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so`zlar yordamida yasalgan qo`shma ot va qo`shma sifatlar qo`shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, qamsuqbat, orombaxsh, kamquvvat, bug`doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat kabi.

Bu kabi suzlarning ko`pchiligi oldingi imlo qoidalarida qo`shib yozilmagan. Bu kabi farqlar imlodan foydalanuvchilarga (Yangi imlo qoidalarini o`rganuvchilarga) maxsus topshiriklar asosida ilgarigi qoidalar Bilan tavsifiy xususiyatlari to`liq tushuntirilishi shart va zarur.

«Šoidalar»ning 39-bandida –(a) rva (inkor shakli –mas) qo`shimchasi Bilan tugaydigan qo`shma ot va qushma sifatlar qo`shib yoziladi deyilgan imloviy tavsiya beriladi. Mazkur banda Ushbu qoidani tavsiflovchi bir qancha illyustrativ materiallar qam berilgan. Chunonchi, o`rinbosar, otboqar, cho`lquvar, ishyoqmas, qushqo`nmas kabi. Bu berilgan misollar qozirgi o`zbek tili uchun xarakterli bo`lgan leksik birliklar. uklarining nutqiy faoliyatda ishlatilish imkoniyatlari qam katta.

«Šoidalar»ning 40-bandida takror taqlid so`zlar imlosini tavsiflovchi qoida va misollar quyidagi tartibda berilgan: takror taqlid so`zlarga qo`shimcha qo`shish Bilan yasalgan ot va fe`llar qo`shib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), qayqayla (qay-qay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

«Šoidalar»ning 41 – bandida qam qo`shib zish imlosining ayrim xususiyatlari qaqida quyidagi ma`lumotlar berilgan:

Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o`xshatish yo`li Bilan bildiruvchi qo`shma ot va sifatlar qo`shib yoziladi: karnaygul, qo`ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg`iyko`z kabi.

«Šoidalar»ning 42-bandida qam narsalarning rangi mazasi va boshqa sifatlarini tavsiflovchi so`zlarning qo`shib yozilish imloviy talablari qaqida ma`lumotlar beriladi:

Narsani uning rangi, mazasi, o`zidagi biror narsasi vash u kabi belgilari asosida bildiruvchi qo`shma otlar qo`shib yoziladi: olaqarg`a, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

«Šoidalar»ning 43-bandida qam narsalarning biror maqsadga mo`ljallanganligini bildiruvchi so`zlarning qo`shib yozilishi qaqidagi imloviy talablar quyidagicha tavsiflanadi:

Narsaning biror maqsad, ish uchun mo`ljallanganligini bildiruvchi qo`shma otlar qo`shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayqon, molqo`ra, nosqovoq, ko`zoynak kabi.

«Šoidalar»ning 44-bandida narsani joyga nisbat berishini tavsiflovchi soʻzlar qoʻshib yozilishi imlosi qaqidagi quyidagi maʼlumotlar berilgan:

Narsani joyga nisbat Berish asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: togʻolcha, choʻlyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

«Šoidalar»ning 45-bandida marosim va afsonalarni bildiruvchi soʻzlarning qoʻshib yozilishi imlosi qaqidagi quyidagi maʼlumot berilgan:

Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryogʻdi, Urtoʻqmoq, Ochildasturxon kabi.

«Šoidalar»ning 46-bandida qaratiluvchi birikmalarning qoʻshib yozilishi imlosi talablari qaqida quyidagi maʼlumotlar tavsiflangan:

Šaratuvchili birikmaning bir soʻzga aylanishi Bilan yuzaga keladigan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: mingboshi, soʻzboshi, olmaqoqi kabi.

«Šoidalar»ning 47-bandida ikkichi qismi turdosh ot Bilan ifodalangan qoʻshma oʻzlarning qoʻshib yozilish imlosi qaqidagi quyidagi maʼlumot tavsiflanadi:

Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod soʻzi Bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: Masalan, Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi.

Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratilib yoziladi: Oʻrta Osiyo, Koʻqna Urganch, Oʻrta Chirchiq kabi.

«Šoidalar»ning 48-bandida rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan qoʻshma soʻzlar imlosi qaqida quyidagi maʼlumotlar beriladi:

Rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli Bilan qosil qilingan qoʻshma oʻzlar qoʻshib yoziladi: Masalan, kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, telekoʻrsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

«Šoidalar»ning 49- bandida qisqartma otlar va ularning imlosi qaqidagi quyidagi maʼlumotlar berilgan:

Šisqartmalarning barcha turlari va ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar qoʻshib yoziladi: SamDU, OʻzMU kabi.

Lekin yonma –yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: OʻzXDP MK(Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

«Šoidalar»ning 50 – bandida bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilgandagi imloviy xususiyatlar qaqida quyidagi maʼlumotlar berilgan: yoʻoʻq, nima, ufff kabi.

ChIZIŠChA BILAN YoZISH IMLOSI

Chiziqcha (defis)ning ishlatilishida boshqa tillarda boʻlgani kabi oʻzbek tilida qam uni tinish belgilari sirasiga qoʻshish qollari mavjud. u qoʻllarga yuzlab misollar keltirishimiz mumkin. Chiziqcha(defis) imloviy funkciyani bajaradi. Chiziqcha qaqidagi nazariy maʼlumotlar imlo qoidalar talablari asosida amalga oshishi koʻzda tutilgan. Bu kabi nuqsonlarni bartaraf qilish uchun, qattoki, oliy oʻkuv yurti uchun tavsiya etilgan lingvistik adabiyotlardan qam kerakli maʼlumotlarni topish qiyin.

Lotin grafikasiga asoslangan oʻzbek yozuvi imlosi qoidalarining 51-56 bandlari soʻzlardagi shu xususiyatlarni tavsiflashga qaratilgan.

«Šoidalar»ning 51 – bandida juft va takror soʻz qismlarining chiziqcha Bilan yozilishi imlosi masalasi tavsiflangan: el-yurt, meqr-shafqat, qovun-tarvuz, OMON-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beeshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldar-suldar, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adibadi, ikir-chikir, duk-duk, taq-taq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bita-bitta (bita-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, qamma-qammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

eslatma:

- 1) juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan suzlar qam chiziqcha (defis) bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq kabi;
 - 2) juft soʻz qismlari orasida –u(-yu) bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: doʻst-u dushman, (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz, (kecha –kunduz) kabi;
 - 3) Yetakchi koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qoʻyasan, uxlabman-qolibman kabi.
- «Soidalar»ning 52-bandida belgini kuchaytiruvchi soʻzlarda chiziqchani ishlatilish imlosi qaqida maʼlumotlar berilgan:
- Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, dum-dumaloq, kupa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-baravar kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq soʻzi qoʻshib yoziladi).
- «Soidalar»ning 53-bandida soʻzning –ma, –ba yordamida birlashgan qismlri chiziqcha bilan yozilish imlosi qaqidagi maʼlumotlar berilgan:
- Soʻzning-ma, –ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism oʻzlar qoʻshib yoziladi: roʻbaroʻ, darbadar kabi.
- «Soidalar»ning 54-bandida rustilidan aynan tarjima qilish yuli bilan olingan soʻzlar chiziqcha bilan yozilishi qaqidagi imloviy maʼlumotlar berilgan:
- Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi
- «Soidalar»ning 55-bandida yuklamalarning chiziqcha bilan yozilish imlosi qaqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:
- chi, -a, (-ya), -ku, -u(-yu), da, e, ey (yey) yuklamalarichiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, koʻy-e, yashang-e, oʻgʻlim-ey, keldi-yey kabi.
- Ammo –mi, oq ,(-yoq), ov (-yov), -gina(-kina, -qina) yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: keliboq, oʻziyoq, qoʻzgʻanoq, koʻrdiyov, mengina, koʻshiqqina kabi. Lekin –gina, kina kabi.
- «Soidalar»ning 56 – bandida tartib sonlarning yozilish imlosi qaqidagi maʼlumotlar berilgan:
- Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: 7-sinf, 5-«A» sinfi, 3-, 7-, 8-sinf oʻquvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

AJRATIB YOZISH IMLOSI

Yuqorida aytilgan fikrlar boʻyicha qoʻshib yozish yoki chiziqcha bilan yozish imlolarining asosiy xususiyatlari tavsiflandi. Bu bobda esa ajratib yozish imlosining asosiy xususiyatlari tavsiflanadi. Imlodan foydalanuvchi qoʻshib yozish bilan ajratib yozishda kamchiliklarga yoʻl qoʻysa, nutq faoliyatidagi asosiy axborot berish masalasi toʻgʻri amalga oshmaydi.

Demak, ajratib yozish malakalarini shakllantirish qam asosiy imloviy masalalardan biri ekanligini eʼtirof etish joizdir.

«Soidalar»ning 57-bandida qoʻshma feʼllarning qismlari ajrati yozilish imlolari qaqida maʼlumot berilgan:

Soʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, taʼsir et, tomon boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etmakabi.

«Soidalar»ning 58-bandida koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼl mustaqil feʼldan ajratib yozilish imlosi qaqidagi maʼlumotlar berilgan: ayti ber, olib koʻr, soʻrab koʻr, koʻra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil feʼl bilan yordamchi feʼl orasida tovush oʻzgarishi boʻlsa, bunday qismlar qoʻshib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

«Soidalar»ning 59-bandida koʻmakchilarning ajratib yozilish imlosi qaqida maʼlumot keltiriladi:

Ko`makchilarajratib yoziladi:shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo`yi kabi.Lekin bilan ko`makchisining –la shakli, uchunko`makchisining –chun shakli chiziqcha bilan yoziladi:sen-la, sen- chun kabi.

«Šoidalar»ning 60-bandida ayrim so`zlarning o`zidan oldingi va o`zidan keyingi so`zdan ajratib yozilish imlosi qaqida ma`lumot beriladi:

Qamma, qar, qech, bir, qay, u, bu, shu, o`sha so`zlari o`zidan oldingi va yoki o`zidan keyingi so`zdan ajratib yoziladi:qamma vaqt, qar kim, qech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o`sha yoqqa kabi.Lekin birpas, biroz, birato`la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so`zlari qo`shib yoziladi.Shuningdek, qay so`zi yo`q, yer suzlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so`zlar qo`shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

«Šoidalar»ning 61-bandida sifatdan oldin kelgan belgining oriq yoki kamligini bildiruvchi so`zlarning ajratib yozilish imlosi qaqida ma`lumot berilgan:

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to`q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so`zlar ajratib yoziladi: to`q qizil, jiqqa qo`l, tim qora, liq to`la, lang ochiq, och sariq kabi.

«Šoidalar»ning 62-bandida murakkab son qismlarining ajratib yozilish imlosi qaqida ma`lumotlar keltirilgan:

Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o`n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

«Šoidalar»ning 63-bandida .dan ga tipidagi konstruksiyalarning ajratib yozilish imlosit to`g`risidagi ma`lumot berilgan:

Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo`nalish kelishigida bo`lgan birikmalar ajrati yoziladi:Yildan yilga farovonlik oshib bormoqda.

«Šoidalar»ning 64-bandida belgining ortiq darajasini bildiruvchi so`zlar ajratib yozilish imlosi qaqida ma`lumot keltirilgan:

Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko`pdan ko`p, tekandan tekin, yangidan yangi , ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

«Šoidalar»ning 65-bandida izofali birikmalarning bir-biridan ajratib yozilish imlosi qaqida ma`lumot keltiriladi:

Izofali birikmalar ajratib yoziladi: Bunda izofa undosh bilan tugagan so`zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so`zlarga yi shaklida qo`shiladi:dardi bedavo, nuqtai nazar, tarjimai qol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so`zlar, shuningdek, qismlardan biri yoki qar ikkisi o`zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so`zlar qo`shilib yoziladi:gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

BOSH QARFLAR IMLOSI

Bosh qarflar imlosida qozirgi o`zbek adabiy tilida juda ko`p muammolar bor.Faqat atoqli otlar bosh qarflar bilan yoziladi degan imloviy qoida bilan to`liq bosh qarflar imlosini qalqilib bo`lmaydi.Shu sababdan qam bosh qarflar imlosi muammosiga mazkur «qoidalar»ning 66-74 bandlari bag`ishlanadi.Šuyida mazkur qoidalar mazmuni va ularga aloqador misollar bilan yuqoridagi bandlar tavsiflanadi.

«Šoidalar»ning 66- bandida kishilarning ismi, familiyasi va taxallusiga doir imloviy qoidalar qaqida ma`lumot beriladi:

Kishilarning ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh qarf bilan boshlanadi:Dilbar O`rinova, Muqabbat Majidova, Azamat Shuqrat o`g`li, Qamza Qakimzoda, Muqammadsharif So`fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig`ichxon, Salomjon Alikov kabi.

«Šoidalar»ning 67-bandida joy nomlarining bosh qarf bilan yozilish imlosi qaqida ma`lumot beriladi:

Joy nomlari bosh qarf bilan boshlanadi:Andijon, Yangiyo`l (shaqarlar), Naymancha, Buloqboshi, (qishloqlar),Bodomzor, Chig`atoy (maqallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov),Šoratol, Pomir (tog`), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Qindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi qam bosh qarf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Šizilqum kabi.

«Šoidalar»ning 68-bandida yulduzlar, sayyoralar va boshqa osmon jismlarining bosh qarflar bilan yozilish imlosi qaqida ma`lumot beriladi:

Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh qarf bilan boshlanadi: Qulkar, Šavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relf nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari qam sayyora nomi bo`lib kelgandagina bosh qarf bilan yoziladi: Yer Šuyoshatrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

«Šoidalar»ning 69-bandida barcha obyektlar va transport vositalarining nomlari bosh qarflar bilan yozilishi imlosi to`g`risidagi ma`lumotlar beriladi:

Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san`at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat maqsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo`yilgan nomlar bosh qarf bilan boshlanadi: «Tong» (meqmonxona), «Saodat» (firma), «Navro`z» «Šoidalar»(xayriya jamg`armasi), «Kamalak»(matbaa birlashmasi), «Huncha» (bog`cha), «Botanika» (sanatoriy), «Paxtakor»(stadion), «Šutlug`qon» (roman), «Dilorom»(opera), «Tanovar»(kuy), «Ozodlik»(qaykal), «Jasorat» (medal), «Sino»(sovutgich) kabi.

«Šoidalar»ning 70-bandida muqim tarixiy sana va bayramlarning bosh qarf bilan yozilish imlosi qaqidagi ma`lumot keltiriladi:

Muqim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so`z bosh qarf bilan boshlanadi:Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon qayiti, Navro`z bayrami kabi.

«Šoidalar»ning 71-bandida davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning va boshqa tashkilotlarning nomlaridagi bosh qarflarning yozilish imlosi qaqidagi ma`lumotlar keltiriladi:

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomidagi qar bir so`z bosh qarf bilan boshlanadi:O`zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi Prezidenti, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jaqon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so`zgina bosh qarf bilan boshlanadi:Bosh vazirning o`rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchila uyushmasi, O`zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so`z bosh qarf bilan boshlanadi:Sog`liqni saqlash vazirligi, Fan va texnologiya markazi, Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti kabi.

«Šoidalar»ning 72-bandida davlatning oliy darajali mukofotlarining bosh qarf bilan boshlanishi qaqidagi ma`lumot berilgan:

Davlatningoliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi qar bir so`z bosh qarf bilan boshlanadi:O`zbekiston Šaqramoni (unvon), Oltin Yulduz (medal).

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so`zgina bosh qarf bilan boshlanadi:»Sog`lom avlod uchun»(orden), «O`zbekistonda xixmat ko`rsatgan fan arbobi»(faxriy unvon), «Matbaa a`lochisi»(nishon) kabi.

«Šoidalar»ning 73-bandida gapning birinchi so`zi bosh qarf bilan boshlanish imlosi to`g`risida ma`lumot berilgan:

gapning birinchi so`zi bosh qarf bilan boshlanadi:Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoqubov).

eslatma:

1) ko`chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so`zi (agar u atoqli ot bo`lmas a) kichik qarf bilan yoziladi: «bu men», - qo`rqibgina javob berdi (O.Yoqubov).

2) xatboshiga gapnng sanaluvchiqismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo`yiladi va ular kichik qarf bilan yoziladi: Ma`muriy ququkbuzarlik to`g`risidagi ishni ko`rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni ko`rib chiqish uchun xuquk doirasiga kirish-kirmasligini;
- ma`muriy ququqbuzarlik to`g`risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to`g`ri tuzilgan-tuzilmaganligini ...qal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli qarf qo'yib sanalsa, bunday qismlar qam kichik qarf bilan yoziladi:

Qozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) rus tilidan kirgan so'zlar («O'zbek tili» darsligida).

“Soidalar”ning 74-bandida tarkibli nomlarin bosh qarflar bilan yozilish imlosi qaqidagi ma'lumotlar berilgan:

Tarkibli nomlarning bosh qarfidan iborat qisqartmalar, atqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh qarf bilan yoziladi: ASh (Amerika Sho'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AEs (atom elektr stansiyasi) kabi.

Shisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi qarfigina bosh qarf bilan ziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

KO'CHIRISH IMLO ŠOIDALARI

Qozirgi o'zbek tilida bo'g'in ko'chirish qoidalarida ilgarigi (rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi) imlosida aniq bir mezon asosida emas edi. Rus-kirill grafikasidagi bo'g'in ko'chirish qoidalarini slavyan tillari xususiyatlarini ko'proq mujassamlashtirgan edi.

Shuni qisobga olib, Lotin grafikasiga asoslana o'zbek yozuvi imlosida bir qancha mukmmalliklarga erishildi. Šuyida bo'g'in ko'chirish qoidalarining qeyingi mukammallashtirilgan variantidagi koidalar mazmuni bo'yicha tavsifiy ma'lumot berishni joiz deb qisoblaymiz. Ayrim qolatlarda bo'g'in ko'chirish qoidalarini buzilganda, bu kamchilini yengilroq xato deb, qo'pol kamchilikka yo'l quyamiz. Ko'pgina didaktik manbalarda bo'g'in ko'chirish qoidalarini qaqidagi tavsifiy va amaliy ko'nikmalarning xususiyatini tavsiflovchi topshiriqlar berlmaydi.

“Soidalar”ning 75-bandida ko'p bo'g'inli so'zlarning o'g'in (sotr) ko'chirish qoidalarini berilgan:

Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi sotrga sig'may qolgan qismi keyingi sotrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si – fatli, pax – takor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: va-da, ma-rifat, mash-al, in-om kabi.

“Soidalar”ning 76-bandida oxirgi bo'g'ini bir qarfdan iborat bo'lgan qolatdagi bo'g'in ko'chirish qolatlari (imlosi) qaqida ma'lumot beriladi:

So'zning bosh yoki oxirgibo'g'ini bir qarfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagibir qarfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi olldingi sotrda qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir qarfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingisotrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

“Soidalar”ning 77-bandida ulashma so'zlarning bo'g'inlari chegaralari qaqidagi imlo ma'lumotlari beriladi:

O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasidakelgan ikki yokiundan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingisotrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosholdingi sotrda qoldirilib, qolgan ikkiundosh keyingi sotrga ko'chiriladi: silin-drik kabi

3) “Soidalar”ning 78-bandida bir tovushni ko'rsatuvchi qarflar birikmasini sotrga ko'chirish qoidalarini qaqida ma'lumot beriladi:

4) Bir tovushni ko'rsatuvchi qarflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi

5) .

6) “Soidalar”ning 79- bandida bosh qarflardan iborat qisqarma so'zlardagi imloviy bo'g'in ko'chirish qoidalarini qaqida ma'lumot berilgan:

7) Bosh qarflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh qarflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar sotrdan sotrga bo'lib ko'chirilmaydi: ASh, BMT, SamDU, 16, 245, 2994, X!X kabi.

- 8) “Šoidalar”ning 80-bandida qarfdan iborat qisqartmalari bo`yicha satrdan satrga ko`chirish imloviy qoidalariga qoida ma`lumot beriladi:
- 9) Masalan, 5-“A” sinf, X “V” guruqi, 110 gr, 15 ga, 105, 25 sm, 90mm kabi.
- 10) “Šoidalar”ning 81-bandida atoqli ot tarkibiga kiradigan raqamlar nomdan ajratilmay satrga ko`chirish imlo qoidalariga qoida ma`lumot beriladi:
- 11) Atoqli otlar tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilganqolda keyingi satrga ko`chirilmaydi: “Navro`z- 92”(festival), “O`qituvchi -97” (ko`rik-tanlov), “Andijon-9”, “Termiz-16” (GUza navlari), “Boing-767”(samolyot), “Foton-774”(televizor) kabi.
- 12) “Šoidalar”ning 82-bandida ismning birinchi qarfiga teeng qisqartmalar familiyadan ajratib ko`chirish qoidalariga imlosiga qoida ma`lumot beriladi:
- 13) A.J.Jobborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismning va toq ismining birinchi qarfiga teng qisqartmalar familiyadan ajraib ko`chirilmaydi. Shuningdek, vyubyu(va boshqalar).yu sh.k.(shu kabilarda), singari qarfiy qisqartmalar qam oldingi so`zdan ajratib ko`chirilmaydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, yetarli nazariy ma`lumotlar berilmagan.

Kirish

Orfografiya (yunoncha – orthos - to`g`ri, grapho-yozaman) yozuv sistemasining ikkinchi komponenti bo`lib, u to`g`ri yozish me`yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi tavsiflari bilan farqlanadi:

grafika qoidalariga kodlashtirishga, orfografiya qoidalariga esa tanlashga asoslanadi. Chunonchi, odam so`zida „d“ ning, savat so`zida esa „t“ ning yozilishi „d“ va „t“ harflarining grafikada kodlashtirilgan fonemalariga mos. Shu sababli bu ikki so`zning yozilishi grafik prinsipga tayanadi. Savod so`zida esa boshqacharoq holatga duch kelinadi: so`z oxiridagi „d“ jarangsiz „t“ ga o`tadi (savot tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: savod (fonematik prinsip asosida) – savot (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me`yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o`zbek orfografiyasida savod deb yozish qoidalashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada qo`shma so`zlar komponentlarining qo`shilib yoki ajratilib yozilishini, so`z qismlarining satrdan satrga ko`chirilishi, bosh va kichik harflarning qo`llaninishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo`lmagan jihatlarini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.

Orfografiya prinsiplari - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo`lgan tamoyillar. Ularning quyidagi turlari bor:

1. Fonetik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga so`z yoki so`z shakllarining talaffuzi va yozilishini (imlosini) bir-biriga yaqinlashtiradi. Masalan, tojik tilidagi tanur so`zining o`zbek tilida tandir deb, ruscha shyotka so`zining cho`tka deb yozilishi shu so`zlarning o`zbek tilidagi talaffuz me`yorlariga (fonetik prinsipga) asoslanadi. Shuningdek, tog`+ga, bog`+ga, ek+gan, ek+guncha kabi so`z shakllari ham talaffuziga mos tarzda toqqa, boqqa, ekan, ekkuncha deb yoziladi.

Quyidagi holatlarda ham fonetik prinsipga amal qilinadi:

- a) ayrim otlarga egalik affiksi qo`shilganda: burun\ burni, ko`ngil \ko`nglim, og`iz, og`zing, o`g`il, o`g`lim;
- b) ayrim sifatlardan fe`l yasalganda: ulug` \ulg`aymoq, sariq \sarg`aymoq;
- v) qotmoq, achimoq, isimoq fe`llaridan sifat yasalganda: qot (moq) \ qattiq;
- d) ikki, yetti sonlariga „-ov“ affiksi qo`shilganda: ikki\ikkov, yetti\yettov ;

e) „-a“ yoki „-ya“ bilan tugagan fe'llarga „-v“ yoki „-q“ qo'shilib ot yasalganda: tanla \ tanlov, sana\ sanov, so'ra \ so'roq, bo'ya \ bo'yoq, sayla \ saylov kabi.

Orfografiyaning fonetik prinsipi yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining o'zlashtirilishini ham osonlashtiradi.

2. Fonematik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra harflar (yoki grafemalar) so'z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Chunonchi, kitob, omad so'zlarining oxiridagi „b“ va „d“ fonemalari jarangsiz „p“ -(kitob) va jarangsiz „t“ (omad) tarzida talaffuz qilinsa-da, asliga mos ravishda „b“ (kitob) va „d“ (omad) harflari bilan yoziladi.

3. Morfologik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so'zning ma'noli qismlarini (o'zak va affiksial morfemalarni), ular qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, asliga mos ravishda yozishni talab qiladi. Chunonchi, „g“ bilan boshlangan „-ga“, „-gan“, „-gani“, „-guncha“, qo'shimchalari „sh“, „t“, „p“, „s“ kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda „-ka“, „-kan“, „-kuncha“ shaklida talaffuz qilinsa-da, asliga ko'ra „-ga“, „-gan“, „-gani“, „-guncha“ yoziladi. Qiyos qiling: ishga (yozuvda)-ishka (talaffuzda), ketgan (yozuvda)- ketkan (talaffuzda), ketguncha (yozuvda)-ketkuncha (talaffuzda), topgan (yozuvda) – topkan (talaffuzda), misga (yozuvda) – miska (talaffuzda) kabi.

Eslatma: „q“, „k“, „g“, „g'“ bilan tugagan so'zlarga „g“ bilan boshlangan affikslarning qo'shilishida bu qoidaga amal qilinmaydi: ular talaffuziga ko'ra (fonetik prinsip asosida) yoziladi. Qiyos qiling: oq+gan (asl shakli) – oqqan (talaffuzda) – oqqan (ad.-orf.yozuvda), ek+gan (asl shakli) - ekkkan (talaffuzda) – ekkkan (ad.-orf.yozuvda), tug' + gan (asl shakli) – tuqqan (talaffuzda), - tuqqan (ad.-orf. yozuvda), sog' + gan (asl shakli) – soqqan (talaffuzda), soqqan (ad.-orf.yozuvda), kabi.

4. Grafik prinsip. Bu prinsip aslida orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini – grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarni ifodalashga asoslanadi. Chunonchi, sirg'aluvchi „j“ bilan qorishiq „j“ ning yozuvda bitta J grafemasi orqali ifodalanishi, „n“ fonemasining esa ng digrafi bilan ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan. Yozuvda shu me'yorga amal qilinadi, xolos: jemper (sirg'aluvchi „j“, jang (qorishiq) „j“ va sayoz til orqa „n“) kabi.

5. Tarixiy – an'anaviy prinsip. Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalari so'zlarning yoki so'z shakllarining qadimdan odat bo'lib qolgan shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun me'yor tarzida belgilaydi. Chunonchi, hurriyat so'zi tarkibida ikkita „r“ning mavjudligi hozirgi o'zbek tili uchun me'yor sanaladi, ammo shu so'z ishtirokida yasalgan jumhuriyat so'zida esa bir „r“ tarzida yoziladi, chunki bu so'zni bir „r“ bilan yozish qadimdan odat bo'lib qolgan.

Tarixiy – an'anaviy prinsip so'zning yoki so'z shaklining haqiqiy tarkibi (fonema yoki morfemalari) yetarli aniqlanmagan holatlarga nisbatan qo'llanadi. Masalan, taqozo so'zining oxirgi bo'g'inidagisi unli ba'zan „o“, ba'zan „a“ holida: (taqozo- taqoza kabi) talaffuz qilinadi, shulardan qaysi biri to'g'ri ekanligi hozircha aniq emas. Biroq shu narsa ma'lumki, yozuvda taqozo shakli aktivroq faolroq qo'llanib kelgan, bu omil hozirgi o'zbek yozuvi imlosiga ham asos bo'lgan. Hozirgi o'zbek imlosida: ulush, buyuk, buyum, yulduz kabi hamda yutuq, uchun, turg'un, butun, yumuq, tuzum, uyum, turmush, tugun, turkum, gumbur – gumbur, g'ovur-g'uvur kabi birinchi bo'g'inida u (yu) kelgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida „aytilishiga muvofiq u (yu) yoziladi“, - degan qoida bor. (Qarang: „O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari“, 2-paragrafning 3-band). Shu qoidaga amal qilinsa, quyidagi so'zlarning ikkinchi bo'g'inida „u“ yozilishi kerak: muhum, murud, munus, muhit kabi. Ammo bu so'zlar barcha imlo lug'atlarida muhim, murid, munis tarzida (ikkinchi bo'g'inida „i“ bilan) berilgan, demak, ularning imlosiga ham tarixiy – an'anaviy prinsip asos qilib olingan.

Tarixiy – an'anaviy prinsipga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchrab turadi: klassik adabiyot tiliga taqlid tarzida so'zlarning eski o'zbek tiliga xos shakllari ishlatiladi. Masalan,

Gul fasli sanam

Sayr ila gulshanda bo'libdur.

G'uncha ko'z ochib

Gul yuzida xanda bo'libdur.

Gullar ichida

Shohi o'zim der edi lola,

Mag'rurlikidan

Ul o'zi sharmanda bo'libdur.(E.V.)

(eski o'zbek tiliga xos birliklar – ila, ul, „dur“)

6.Differensial prinsip (simvolik prinsip). Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra, shakli bir xil bo'lgan so'zlar (omonimlar) yozuvda signalizatorlar (ishora belgilari) vositasida farqlanadi: atlas (mato) – atlas (geografik atlas), yangi (sifat) - yangi (ravish) , tana (gavda) – ta'na (minnat), mil (soat) – mil (o'lchov birligi) kabi. Keltirilgan so'zlarda urg'u belgisi (/0, ayirish (') va yumshatish (') belgilari orfografiyaning differensiasiya prinsipi talablariga ko'ra qo'llangan.

7.Shakliy- an'anaviy yozuv. Bu prinsip so'z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo'ladi. Ma'lumki, o'tmishda turkiy tillarda so'z

boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qo'llanilishi uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo'lgan. Bu odat hozirgi jonli so'zlashuvda ham uchray turadi: shka\ shkof, staj\ istaj, drap\ dirap, plan\ pilon kabi. Ba'zan so'z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshdan biri (so'nggisi) tushirib qoldiriladi: sabr\ sabir, nasr\ nasir, nashr\ nashir, go'sht\ go'sh, g'isht\ g'ish kabi. Shakliy – an'anaviy yozuv prinsipiga ko'ra bunday paytda so'zlar talaffuzi asosida emas, o'zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: shka\, staj, drap, plan, sabr , nasr, nashr, g'isht, go'sht kabi.

Amaldagi (kirilcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalarining shakllanishida fonetik, fonematik va morfologik prinsiplarga ko'proq amal qilingan.

Amaldagi (kirilcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlarining imlo qoidalaridagi tafovutlar

Amaldagi (kirilcha) o'zbek yozuvining dastlabki imlo qoidalarini 1940 -yilning 4- iyulida yangi alifbo hukumat komissiyasi tomonidan, uning qayta ishlangan va takomillashtirilgan so'nggi varianti esa 1956 - yilning 4 - aprelida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan edi. Ana shu so'nggi variant hozirgi (amaldagi) o'zbek yozuvining imlo me'yorlarini belgilab beruvchi asosiy hujjatdir.

Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalarini 1995- yilning 23- avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Amaldagi (kirilcha) o'zbek yozuvining imlo qoidalarini „O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini“ nomi bilan, yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalarini esa „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini“ nomi bilan nashr etilgan. Bu ikki „qoidalar“ning strukturaliy – kompozitsion tafovutlari quyidagilardan iborat:

1. „O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini“ 5 bo'limni o'z ichiga oladi: a)ayrim harflarning imlosi; b)o'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi; v) qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi; g) bo'g'in ko'chirilishi; d) bosh harflarning yozilishi.

„O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini“ 7 bo'limdan iborat: a) harflar imlosi; b) asos va qo'shimchalar imlosi; v) qo'shib yozish; g) chiziqcha bilan yozish; d) ajratib yozish; e) bosh harflar imlosi; j) ko'chirish qoidalarini.

2.Ayrim qoidalar bir bo'limdan boshqa bo'limga ko'chirilgan. Masalan, amaldagi „qoidalar“ning „o'zak – negiz va qo'shimchalar imlosi“dagi 47- paragraf (Arabcha raqamlardan so'ng –nchi qo'shimchasi o'rnida faqat chiziqcha (-) qo'yiladi: 5 – modda qoidasi) yangi „qoidalar“ning „chiziqcha bilan yozish“ bo'limiga o'tkazilgan va bir necha eslatma bilan to'ldirilgan.

11. Amaldagi „qoidalar“ning ayrim paragraflari yangi „qoidalar“ga kiritilmagan. Masalan, 2 – paragraf (3-moddasi), 6-paragraf (2 va 3 –moddalari), 8-paragraf (1-moddasi), 9-paragraf („yo“ harfi), 10-paragraf („yu“ harfi), 11-paragraf („ya“ harfi), 12-paragraf (2-moddasi), 13-paragraf (v\b kabi holatlar), 21-paragraf, 22-paragraf (2-moddasi), 26-paragraf (1-moddasi), 27-paragraf, 28-paragraf, 31 – paragraf, 40 – paragraf, 41 – paragraf, 48 – paragraf, 49 – paragraf, 50 – paragraf (2-moddasidagi u (yu) ga aloqador qism), 52 – paragraf; 58 – paragraf, 14 – paragraf va boshqalar. Yuqorida berilgan qoidalarining yangi qoidalar to'plamiga kiritilmaganligi bir qator omillarga asoslanadi: „e“ harfining yangi yozuvda faqat „e“ unlisini ifodalashi („y+e“ ni emas) ë, ю, я harflarining yangi alifboda yo'qligi, ayrim qoidalarining o'zini oqlamaganligi kabi sabablar shular jumlasidandir. Faktlar tahliliga murojaat etaylik:

1. 1956 - yil „qoidalar“ning 2 – paragrafida „u“ harfining yozilishiga oid 3 ta qoida berilgan bo'lib, shulardan bittasi (2-qoida) qovun, sovun, tarvuz, tasavvur, quvur, kabi so'zlar imlosiga taalluqlidir. Bu qoidaga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inlarida o, a, u unlilaridan biri bo'lsa va shu unlidan keyingi yopiq bo'g'in boshida v undoshi kelsa, „v“dan so'ng „u“ yoziladi. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlosida bu qoida faqat „o“ unlisidan keyingi yopiq bo'g'inga (qovun, sovun, tovush so'zlaridagi „v“ dan so'ng „u“ yozilishiga) nisbatan saqlangan, oldingi bo'g'inda „a“ (masalan, tarvuz so'zida) yoki „u“ (masalan, quvur so'zida) bo'lgan holatlar yangi „qoidalar“dan tushurib qoldirilgan. Shuningdek, amaldagi „qoidalar“ning 2-paragraf 3-moddasidagi: ulush, buyuk, buyum, yulduz kabi hamda yutuq, turg'un, butun, yumuq,

tuzum, uyum, turmush, tugun, turkum, gumbur – gumbur, g'uvur – g'uvur kabi birinchi bo'g'indagi u (yu) kelgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida, „aytilishiga muvofiq, u (yu) yoziladi“ qoidasi ham yangi „qoidalar“ga kiritilmagan.

2. 6- paragraf a harfi: 2) mart, may, zal kabi bir bo'g'inli so'zlarda, avgust, avangard, zavod kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida, xususan, v undoshidan oldin, o ga moyilroq aytiladigan tovush o'rnida yoziladi; 3) muomala, muzokara, muhokama, munosabat, mubolag'a, mutolaa kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida a yoki i tarzida aytiladigan tovush o'rnida yoziladi, -degan qoidalar ham yangi to'plamga kiritilmagan.

Yuqoridagi kabi holatlar o'zak (asos) va qo'shimchalar imlosida ham uchraydi. Xususan, amaldagi (kirilcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalaridagi quyidagi paragraflar yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalariga kiritilmagan.

31-paragraf. Osh-osh, bosh-boshla, sog' – sog'ay, yosh – yoshla kabi so'zlarda talaffuziga ko'ra o yoki yo yoziladi. Ammo son, ong, yosh, ot kabi bir bo'g'inli ba'zi so'zlarda yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda, o tovushi a ga, yo tovushi ya ga aylanadi: son\sanamoq, sanoq; ong\angla, anglatmoq, anglashiladigan; yosh\yasha, yashamoq, yashasin; ot\ata, atamoq, ataladi kabi.

40-paragraf. Isimoq, achimoq, qotmoq kabi fe'llardan sifat yasalganda, ba'zan o'zakdan s, ch va t undoshi takrorlanadi va shunga muvofiq yoziladi: isimoq-issiq, achimoq-achchiq., qotmoq – qattiq kabi. Shuningdek, fan so'ziga –iy qo'shib yasalgan sifat ham ikki n bilan yoziladi: fanniy.

41 – paragraf. Yoz, kel, ter, kuzat, keltir kabi undosh bilan tugagan fe'l o'zak-negizlariga –uv+chi, uv+chilik, uv+chan qo'shimchalari qo'shilib, yangi so'z yasalganda, bu qo'shimchalar –uvchi, uvchilik, uvchan shaklida v bilan yoziladi: yoz – yozuvchi, yozuvchilik, kel – keluvchi, ter – teruvchi, kuzat – kuzatuvchilik, keltir – keltiruvchi, kul – kuluvchi kabi.

48 –paragraf. Sifat va otlarni bir – birlaridan farq qilish uchun ishlatiladigan—li va –lik qo'shimchalari quyidagi o'rinlarda yoziladi: bolali – bolalik, suvli – suvlik.

49 –paragraf. Familiyani bildiruvchi qo'shimchalar undosh bilan tugagan qismi otlariga –ov- ova shaklida: Sodiqov, Sodiqova kabi; unli bilan tugagan otlarga esa –ev, -eva shaklida: Xayrullayev, Xayrullayeva kabi qo'shilib yoziladi

Ayni paytda bir qator qoidalar yangi to'plamda yangicha talqinda, ba'zan jiddiy o'zgarishlar bilan berilganligini ko'ramiz. Chunonchi:

1. Rus grafikasi asosidagi o'zbek orfografiyasida „-uh“ (-ih) qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi orfografiyasida esa bu qo'shimchalarning imlosiga oid maxsus eslatma bor. Unda shunday deyiladi: „Undosh bilan tugagan, tarkibida u unlisi bor fe'lga uq qo'shiladi“: uz -uzuq, yut – yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchiriq, shuningdek, bulduriq kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida „i“ aytiladi va shunday yoziladi. (Qarang: 33-qoidaning eslatma qismi);

2. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchrab turadi. Masalan, bobo va avzo so'zlariga egalik qo'shimchalari ikki xil tarzda –bobo so'ziga „-m“ va „-ng“ shakllarida (bobom, bobong kabi), avzo so'ziga „y+im“, „y+ing“ shakllarida („o“ dan so'ng bir „y“ orttirilib) qo'shiladi: avzo+y+im, avzo+y+ing kabi. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosida bunday holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q. Bu hol ayrim grammatik shakllarning yozuv amaliyotida turlicha ifodalanishiga (orzum, orzuyim, inshong va inshoying shakllarida yozilishiga) sabab bo'layotir. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda, xususan, shunday qoida berilgan: o, o', u, e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si, -miz, -ngiz (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi, orzungiz, orzusi, orzulari kabi;

b) parvo, obro', mavqe, avzo, mavze so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir „y“ tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying, parvoyimiz, parvoyingiz, obro'yim, obro'ying, obro'yingiz, kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga – yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa „-si“ shaklida qo'shiladi: xudosi, mavzusi kabi (dohiy kabi „y“ undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda „-si“ qo'shiladi: dohiysi kabi). (qarang: 35-qoidaning 2 -va 3-bandlari).

3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra shovul, ovul, quvur so'zlarida „v“ dan so'ng „u“, shovillamoq, lovillamoq, guvillamoq kabi so'zlarda (taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda) esa „v“ dan so'ng „i“ yoziladi. (Qarang: 2 - va 50 – paragraf qoidalari). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan. Bu qoidaga ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham v dan so'ng „i“ emas, „u“ yoziladi: shovullamoq, lovullamoq, guvullamoq kabi. (qarang: 37-qoidaning 1-bandi).

4. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida („qoidalar“ning 42 – paragrafida) fe'llarning orttirma daraja yasovchi „-dir“ qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga „-tir“ shaklida qo'shilishi aytilgan. Aslida esa jarangli „z“dan so'ng „-tir“ emas, „-dir“ qo'shiladi. Qiyos qiling: cho'miltirmoq, sevintirmoq, ammo tomizdirmoq, oqizdirmoq kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berildi. Unda shunday qoida bor: „nisbat shaklini yasovchi –dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi“: quvdir, egdir, kuldir, yondir, o'tkazdir, tomizdir kabi. (qarang: 37 – qoidaning 2-bandi).

5. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida („qoidalar“ning 34- paragrafida) „g“ yoki „g“ bilan tugagan so'zlarga „g“ bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxirida va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: bog' - boqqa, tog' – toqqa, barg – barkka, teg – tekkan kabi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa bunday so'zlar talaffuziga (fonetik prinsipga) ko'ra emas, morfemalarning asl holiga mos ravishda (morfologik prinsip asosida) yoziladi: bog'ga, tog'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha, bargga, teggan kabi. (qarang: 37-qoidaning „v“ bandi).

6. 1956 - yil „qoidalar“ning 43 – paragrafiga ko'ra „-gin“, „-g'ir“, „-giz“, „-gaz“ qo'shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda aytilishiga muvofiq „-kin“, „-qin“, „-kir“, „-qir“, „-kiz“, „-qiz“, „-kaz“, „-qaz“ shaklida yoziladi: tortkin, topkin, tushkin, tortqiz, o'tkaz, o'tkir, chopqir kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra „-gin“ qo'shimchasi „k“ yoki „h“ bilan tugagan so'zlardan boshqa so'zlarga qo'shilganda, so'z qanday

tovush bilan tugashidan va qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki g aytilishidan qat'iy nazar, „g“ bilan yozilishi aytilgan. Qiyos qiling: tortkin (1956- yil qoidasiga ko'ra), -tortgin, (1995- yil qoidasiga ko'ra), topkin (1956- yil qoidasiga ko'ra), -topgin (1995- yil qoidasiga ko'ra). Biroq „-gir“, „-giz“, „-gaz“ qo'shimchalari bu qoida doirasiga kiritilmagan.

7. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining „asosiy qoidalari“da ikki otdan tuzilgan qo'shma sifatlarning ajratilib yozilishi aytilgan: dutor, bo'yin (ot+ot =qo'shma sifat), qo'y ko'z (ot+ot=qo'shma sifat), bodomqovoq (ot+ot=qo'shma sifat) havo rang (ot+ ot = qo'shma sifat), g'o'za po'choq (ot+ot=qo'shma sifat) kabi 58 – paragraf, 3-qoida). Qo'shma sifatlarning imlosiga oid bu qoida amalda o'zini oqlagani yo'q: orombaxsh, bug'doyrang, ilhombaxsh so'zlari „ot+ot =qo'shma sifat“ qolipida tuzilgan bo'lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug'atlarida qo'shib yozilgan, devsisfat, odamsifat so'zlari esa (ular ham „ot+ot =qo'shma sifat“ qolipida shakllangan) lug'atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi „qoidalari“da bu tipdagi qo'shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: „qoidalar“ning 38 – bandida xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlarning qo'shib yozilishi qayd etilgan: Qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, sovuqmijoz, devsisfat, suvtalab kabi. (Qarang: 38 – qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, havo rang, jigar rang, bodom qovoq, qo'y ko'z kabi qo'shma sifatlarning komponentlari ham lotincha o'zbek yozuvida qo'shib yozilishi kerak: Havorang, bodomqovoq, qo'yko'z, jigarrang kabi.

8. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra ming boshi, o'n boshi, so'z boshi kabilar birikmali xususiyatni saqlagan so'zlar sifatida ajratib yoziladi (Qarang: 58 – paragraf). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi (Qarang: 46-qoida).

9.1956- yil „qoidalari“da ikkinchi komponenti „yo“ lashgan tovush bilan boshlangan sher yurak, muz yorar, ish yoqmas, qo'l yozma tipidagi so'zlarning ajratib yozilishi aytilgan (Qarang:58 – paragraf, 14 – qoida). Lotin grafikasidagi yangi yozuvda bunday so'zlar qo'shib yoziladi: sheryurak, muzyorar, ishyoqmas kabi (qarang: 39 – qoida).

10.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra yeru osmon, oru nomus, tunu kun, kecha yu kunduz, yoshu qari, qo'yu qo'zi kabi juft so'zlarda chiziqcha qo'yilmaydi (58-paragraf, eslatma). Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra ham bunday so'zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida –u (yu) bog'lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo'yiladi: do'st-u dushman, kecha-yu kunduz kabi (51 –qoidaning 2-band).

11.Rus grafikasi asosidagi o'zbek imlosiga ko'ra yil va oylarni (chislolarni) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha yozilmaydi: 1956- yil 22- sentyabr kabi (47- paragraf qoidasi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra bunday o'rinlarda chiziqcha qo'yiladi: 1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar kabi (56 – qoida).

12.Rus grafikasidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra alla, qay elementlari so'zga qo'shib yoziladi: allakim, allaqanday, qaybir, qayhavat kabi (58-qoida, 13-band). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra qay so'zi o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: qay kuni. Agar qay so'zi yoq, yer so'zlari bilan ishlatilganda, bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerga kabi (60-qoida).

Izoh: lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek imlosida alla komponentli so'zlarga qoida berilmagan, ularga munosabat ham bildirilmagan.

13.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra bir oz ravishi komponentlari ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra biroz so'zining komponentlari qo'shib yoziladi. (60-qoida).

14.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida yildan-yilga, ko'pdan-ko'p tipidagi birliklar juft so'zlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchaning yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf, 1-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalarning

komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekandan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan kabilar ajratib yoziladi. (63-, 64-qoidalar).

15. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlarning (nuqtai nazar, oynai jahon, dardi bedavo kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan (58 – paragraf, 7 – qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoidaga bitta o'zgarish kiritilgan: endilikda (yangi yozuvda) izofa undosh bilan tugagan so'zlarga „i“ shaklida (masalan, dardi bedavo kabi). qo'shiladi. (65-qoida).

16. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi „qoidalari“ning 69- va 71 – paragraflari bir xil hodisaning birikmali me'yorlarini ikki xil yozishga yo'l ochadi: birikma muhim yig'ilish nomi bo'lganda, undagi har bir so'z bosh harf bilan, birikma muhim tarixiy voqea nomi bo'lganda esa undagi birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan boshlanadi, Qrim Konferensiyasi (69 – paragraf qoidasiga mos) – Qrim Konferensiyasining (71 – paragraf qoidasiga mos).

Izoh: birinchi misolda Qirim Konferensiyasining muhim yig'ilishi nomi ekanligi, ikkinchi misolda esa shu birikmaning muhim tarixiy voqea nomi hisoblanishi nazarda tutilgan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan. Unga ko'ra „muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi“ (70 – qoida). Demak, lotin afikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaning izchil bo'lishi ta'minlangan.

17. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining „Ko'chirish qoidalari“da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

77 – qoida. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi.

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

79-qoida. Bo'g'inga teng qism satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: SamDU

Izoh: 79 – qoidaning bosh harflardan tuzilgan qisqartmalarga (AQSH, BMT kabilarga), shuningdek, ko'p xonali raqamlarga (16, 234, 1997 XIX kabilarga) aloqador qismi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ham bor.

80 – qoida. Harfdan oldin iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5 –, „A“ sinf, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81 – qoida. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: „Navro'z – 92“ (festival), „O'qituvchi – 98“ (ko'rik - tanlov) „Andijon-9“, „Termiz-16“ (g'o'za navlari), Boeing-767 (samolyot), „Foton – 774“ (televizor) kabi.

82 – qoida. A.J.Jabborov, A.D.Abdullayev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v. b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilarda) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

„O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ning tavsifi masalasi.

„Qoidalar“da ta'kidlanishicha, imlo muammolarida ko'pgina o'zgarishlar bor. Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosidagi „qoidalar“ 7 bobdan iborat. Imlo talablari hozirgacha amalda bo'lgan kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosidagi barcha noaniqliklar tuzatilgan, ular o'rtasidagi tafovutlar haqida yuqorida batafsil ma'lumot berganmiz. Joriy etilayotgan o'zbek yozuvi imlosidagi o'zgarishlar, shuningdek, „qoidalar“ning asosiy strukturaviy – kompozitsion xususiyatlari haqida boblar yuzasidan tavsif beramiz:

BOB

Harflar imlosi

„Qoidalar“ning 1- bandida „a“ harfi imlosiga oid ma'lumotlar berilgan: 1) aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) bahor, zamon, savol, gavda, vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

„Qoidalar“ning 2- bandida „o“ harfi imlosi yuzasidan tavsif berilgan: 1) ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin, mukofot, mahorat kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) boks, poyezd, tonna, talon, agronom, mikrofon, direktor, termos kabi o'zlashma so'zlaridagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 3 – bandida „i“ harfi imlosi yuzasidan berilgan tavsif quyidagicha: 1) ish, iz, xirmon, ixlos, ixtisos, shoyi, tulki, volida, piramida, bilan, biroq, sira, chiroq kabi so'zlarda old qator tor unilarni ifodalash uchun yoziladi;

2) o'rin, o'rik, bo'lim kabi oldingi bo'g'inida „o“ unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida „i“ aytiladi va yoziladi.

„Qoidalar“ning 4 – bandida „u“ harfi imlosi yuzasidan quyidagi tavsif beriladi:

1) uy, kun, buzoq, Buxoro, butun, uchun, yulduz, mafkura, ko'zgu, uyqu, yubiley kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida o unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin u aytiladi va yoziladi.

„Qoidalar“ning 5 – bandida „o'“ harfi imlosi yuzasidan quyidagi tavsif berilgan:

o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin kabi so'zlarda orqa qator o'rta keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 6 – bandida „e“ harfi imlosi yuzasidan quyidagi tavsif berilgan:

1) ekin, esla, evara, erkin, eksport, kel, zehn, behi, telefon, teatr, poyezd, atelye kabi;

2) e'lon, ne'mat, she'r kabi so'zlarda old qator o'rta keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 7 – bandida yonma-yon keladigan unlilar imlosi haqida tavsif quyidagicha berilgan:

1) unlilar orasiga ba`zan „y“ undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

2) ia: material, milliard, radiator, tabiat, shariat kabi;

3) io: biologiya, million, stadion, radio kabi;

4) ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi;

5) oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;

6) ea: teatr, okean, laureat kabi;

7) ae, oe unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: aerostat, poema kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya va boshqalar.

Demak, unli harflarning yozilishi va ulardagi talaffuz me'yorlari o'rtasidagi tafovutlarga lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ancha barham berilgan. Fonografik yozuv talablari ham fonetik jarayonlar, ham grafik va orfografik jarayonlar o'rtasidagi farqlarni mazkur orfografiya qoidasida yaqinlashtirgan. Ilgarigi „yo“lashgan unlilar grafik va talaffuz shakli o'rtasidagi tafovutlar batamom yo'qotilgan.

Undosh harflar imlosi.

„Qoidalar“ning 8- bandida „b“ harfi imlosi yuzasidan quyidagi tavsif berilgan:

1) bobo, bahor, bir, majbur, zarb kabi so'zlarda jarangli portlovchilar lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) kitob, yuzlab, kelib kabi so'zlar oxirida p aytilsa ham, b yoziladi.

„Qoidalar“ning 9-bandida „p“ harfi imlosi haqida quyidagi tavsif berilgan:

paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 10-bandida „v“ harfi imlosi yuzasidan quyidagi tavsif berilgan:

1) ov, suv, kuyov, ovoz, savol, volida, vatan kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) avtobus, avtomat kabi soʻzlarda v baʼzan f aytilsa ham, v yoziladi.

„Qoidalar“ning 11-bandida „f“ harfiga tavsif quyidagicha berilgan:

1) fan, feʼl, futbol, fizika, asfalt, juft, insof, isrof kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) fasl, fayz, Fotima, fursat kabi soʻzlarda f tovushi baʼzan p aytilsa ham asliga muvofiq f yoziladi.

„Qoidalar“ning 12-bandida „m“ harfi imlosi haqida quyidagi tavsif berilgan:

moy, muborak, tomon, ilhom kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshini ifodalash uchun yoziladi;

„Qoidalar“ning 13-bandida „d“ harfi imlosiga quyidagi tavsif berilgan:

1) dala, odat, bunyod, moda, jiddiy kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) obod, savod, marvarid, zavod, sud, sud, badqavoq, badxoʻr kabi soʻzlarda t aytilsa ham, d yoziladi.

„Qoidalar“ning 14-bandida „t“ harfi imlosiga doir maʼlumotlar quyidagicha tavsiflangan: tong, tun, butun, oʻtin, kut kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 15-bandida esa „z“ harfi imlosiga doir quyidagi maʼlumotlar berilgan:

1) zar, zamon, toza, oʻzbek, yoz, gʻoz kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz kabi soʻzlarda jarangli undoshdan oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

„Qoidalar“ning 16-bandidan „s“ harfi imlosi haqida quyidagi maʼlumot berilgan:

sogʻ, oson, asos, olmos kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 17 – bandida „sh“ harfi imlosi haqida quyidagi maʼlumot berilgan:

shahar, shisha, shodlik, ish, pishiq, bosh, tosh kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi sh undoshini ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq belgisi qoʻyiladi: Isʼhoq, asʼhob kabi.

„Qoidalar“ning 18 – bandida „j“ harfi haqida quyidagi maʼlumot berilgan:

1) jon, jahon, juda, tijorat, vaj kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) jurnal, projektor, gijda, ajdar kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 19-bandida „ch“ harflari birikmasi haqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:

1) choy, chevar, chiroyli, chaman, achchiq, uchun, bichiqchi kabi;

2) kuch, kech kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 20-bandida „r“ harfi imlosi haqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:

rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor kabi soʻzlarda til oldi ovozdor undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 21-bandida „l“ harfi imlosi haqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:

lola, loyiq, laʼl, iloj, mahal kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 22-bandida „n“ harfi imlosi haqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:

1) non, nomus, ona, tana, bilan, tomon kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) shanba, yondosh, jonbozlik, yonma-yon, koʻrinmaslik kabi soʻzlarda n tovushi baʼzan m aytilsa ham, n yoziladi.

„Qoidalar“ning 23-bandida „g“ harfi imlosiga oid quyidagi maʼlumotlar berilgan:

gul, go'zal, ega, gugurt, teg, eg kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 24-bandida „k“ harfi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

ko'l, ko'ylak, uka, moki, tok, bilak kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 25-bandida „y“ harfi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz, tuya, dunyo, tayyor, soy, tuy kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 26-bandida „ng“ harflar birikmasi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz, tong, ming, teng kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 27-bandida „h“ harfi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 28-bandida „g“ harfi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: g'oz, bag'ir, tog' kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 29 – bandida „x“ harfi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: xabar, xo'roz, xonish, xushnud, baxt, axborot, mix kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 30 – bandida „h“ harfi imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: hosil, hamma, bahor, isloh, nikoh kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

„Qoidalar“ning 31-bandida yonma-yor keladigan undoshlarning imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1) baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht kabi so'zlarda d, t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmay qoladi: metall +lar= metallar, kilogramm+mi=kilogrammi kabi.

„Qoidalar“ning 32-bandida tutuq belgisi va uning imloviy xususiyatlari haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

1) a'lo, ba'zang, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, she'r, fe'l, No'mon, shu'la kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; mo'jiza, mo'tadil kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) in'om, san'at, mas'ul kabi so'zlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi imlosida mazkur bob „O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi“ deb nomlangan edi. Bu nomlanishdagi tafovutlar lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosi yuqoridagi nom bilan o'zgartirilgan. O'zgarish to'g'risida yuqorida bayon qilgan fikrlarimizda ham uning bir qancha lisoniy talablari tavsiflandi. Demak, „Asos va qo'shimchalar imlosi“ deb nomlanishining grammatik, orfografik, grafik va logik talablarni bajarishga qaratilgan fikrlar bilan asoslanishi juda to'g'ri ko'rsatilgan.

„Qoidalar“ning 33-bandida qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgarishi to'g'risidagi imloviy tavsif quyidagicha berilgan:

- 6) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -h, -hi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o' aytiladi va shunday yoziladi: sayla – saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi kabi;

- 7) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga –v, -h qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: o'qi-o'qituvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq kabi; Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga –h qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: og'ri-og'riq, qavi-qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga –uv qo'shiladi: ol-oluv, yoz-yozuv kabi;
2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlichsi bor fe'lga –uq qo'shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi. „Qoidalar“ning 34-bandida k va h undoshi bilan tugagan so'zlar imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: k va q bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q, kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi k undoshi g undoshiga, h undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuraging, kubok-kuboging, bek-begi, tayoq-tayog'i, qoshiq-qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g' kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi kabi.

„Qoidalar“ning 35-bandida qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushishi yoki ortishi holatlari haqidagi imloviy xususiyatlar quyidagicha berilgan:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi –il qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'inidagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngling, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga –da, –dan, –day, dagi, –ga, gacha, cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunda, shunda, o'shanda, o'shancha kabi;

3) o, o', u, e unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari –m, –ng, –si; –miz, –ngiz, –si (yoki-lari) shaklida tovush ortirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (bobolaroi); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;

b) parvo, obro', mavqe, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz kabi;

III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe, so'zlariga –yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa –si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzui kabi (dohiy kabi y undoshi bilan tugagan so'zlarga ham III shaxsda-si qo'shiladi : dohiysi kabi);

4) Men, sen olmoshlariga –ni, –ning, –niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n aytilmaydi va yozilmaydi: mening, sening, meniki, seniki kabi.

„Qoidalar“ning 36 – bandida ayrim qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yozilishi haqidagi imloviy talab quyidagicha tavsiflangan:

1)-bon, -boz qo'shimchalari ba'zan-von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt –bon, -boz tarzida yozilishi tavsiflangan: darvozabon, masxaraboz kabi; 2)lekin-vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi;

3) o'rin-payt kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining o'tgan zamon yasovchi va III shaxs ko'rsatkichi –di qo'shimchasining boshida undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmadi kabi.

„Qoidalar“ning 37-bandida ayrim qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytilishi va yozilishi haqidagi imloviy ma'lumotlar quyidagicha tavsiflanadi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi –illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda –ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi –dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan ortirma nisbat yasovchisidan keyin

qo'shiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir, o'tkazdir, tomizdir kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha –tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ga chegara bildiruvchi –gacha ravishdosh shaklini yasovchi –gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi –gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'rsatkichi –gin, shuningdek, -gina qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkan, kechikkudek, bo'kkan, ekkan, kichikkina kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'iy nazar, g yoziladi: bargga, padagogga, bug'ga, og'gan, sig'guncha kabi.

QO'SHIB YOZISH IMLOSI VA UNING XUSUSIYATLARI

Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosidan lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida bu bobning xususiyatlari ham keskin farq qiladi. Ular haqida yuqorida har ikkala „qoidalar“ning tavsifiy xususiyatlari va ularning tafovutlari haqidagi fikrlarimizda qism an bayon qilganmiz.

„Qoidalar“ning 38-bandida qo'shib yozish imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: xona, noma, roya, bor, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsfat kabi.

Bu kabi so'zlarning ko'pchiligi oldingi imlo qoidalarida qo'shib yozilmagan. Bu kabi farqlar imlodan foydalanuvchilarga (yangi imlo qoidalarini o'rganuvchilarga) maxsus topshiriqlar asosida ilgari qoidalar bilan tavsifiy xususiyatlari to'liq tushuntirilishi shart va zarur.

„Qoidalar“ning 39-bandida –(a) r va (inkor shakli –mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi deyilgan imloviy tavsiya beriladi. Mazkur bandeda ushbu qoidani tavsiflovchi bir qancha illyustrativ materiallar ham berilgan. Chunonchi, o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi. Bu berilgan misollar hozirgi o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan leksik birliklar ularning nutqiy faoliyatda ishlatilish imkoniyatlari ham katta.

„Qoidalar“ning 40-bandida takror taqlid so'zlar imlosini tavsiflovchi qoida va misollar quyidagi tartibda berilgan: takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), hay hayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

„Qoidalar“ning 41 – bandida ham qo'shib yozish imlosining ayrim xususiyatlari haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

„Qoidalar“ning 42-bandida ham narsalarning rangi mazasi va boshqa sifatlarini tavsiflovchi so'zlarning qo'shib yozilish imloviy talablari haqida ma'lumotlar beriladi:

Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, achchihtosh, mingoyoq kabi.

„Qoidalar“ning 43-bandida ham narsalarning biror maqsadga mo'ljallanganligini bildiruvchi so'zlarning qo'shib yozilishi haqidagi imloviy talablar quyidagicha tavsiflanadi:

Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

„Qoidalar“ning 44-bandida narsani joyga nisbat berishini tavsiflovchi so'zlar qo'shib yozilishi imlosi haqidagi quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

„Qoidalar “ning 45-bandida marosim va afsonalarni bildiruvchi so'zlarning qo'shib yozilishi imlosi haqidagi quyidagi ma'lumot berilgan:

Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon kabi.

„Qoidalar “ning 46-bandida qaratiluvchi birikmalarning qo'shib yozilish imlosi talablari haqida quyidagi ma'lumotlar tavsiflangan: haratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga keladigan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi.

„Qoidalar “ning 47-bandida ikkinchi qismi turdosh ot bilan ifodalangan qo'shma so'zlarning qo'shib yozilish imlosi haqidagi quyidagi ma'lumot tavsiflanadi:

Ikkinchi qism i turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Masalan, Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi.

Lekin ikkinchi qism i atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratilib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq kabi.

„Qoidalar“ning 48-bandida rus tilidan aynan o'zlashtirilgan qo'shma so'zlar imlosi haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: Masalan, kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

„Qoidalar “ning 49- bandida qisqartma otlar va ularning imlosi haqidagi quyidagi ma'lumotlar berilgan: qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: SamDU, O'zMU kabi.

Lekin yonma–yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

„Qoidalar “ning 50 – bandida bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilgandagi imloviy xususiyatlar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: yo'o'q, nimaa, himm, uff kabi.

CHIZIQCHA BILAN YOZISH IMLOSI

Chiziqchaning ishlatilishida boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham uni tinish belgilari sirasiga qo'shish hollari mavjud. U holatlarga yuzlab misollar keltirishimiz mumkin. Chiziqcha imloviy funkciyani bajaradi. Chiziqcha haqidagi nazariy ma'lumotlar imlo qoidalar talablari asosida amalga oshishi ko'zda tutilgan. Bu kabi nuqsonlarni bartaraf qilish uchun, hattoki, oliy o'quv yurti uchun tavsiya etilgan lingvistik adabiyotlardan ham kerakli ma'lumotlarni topish qiyin. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi imlosi qoidalarining 51-56- bandlari so'zlardagi shu xususiyatlarni tavsiflashga qaratilgan.

„Qoidalar “ning 51 – bandida juft va takror so'z qismlarining chiziqcha bilan yozilishi imlosi masalasi tavsiflangan: el-yurt, mehr-shafhat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beeshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldar-suldar, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adibadi, ikir-chikir, duk-duk, taq-taq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

Eslatma:

- 14) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq kabi;
- 2) juft so'z qismlari orasida –u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: do'st-u dushman, (do'st-dushman), kecha-yu kunduz, (kecha –kunduz) kabi;
- 3) yetakchi ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman kabi.

„Qoidalar “ning 52-bandida belgini kuchaytiruvchi soʻzlarda chiziqchani ishlatilish imlosi haqida maʼlumotlar berilgan:

Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-baravar kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq soʻzi qoʻshib yoziladi).

„Qoidalar “ning 53-bandida soʻzning –ma, -ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yozilish imlosi haqidagi maʼlumotlar berilgan:

Soʻzning-ma, -ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism oʻzaklar qoʻshib yoziladi: roʻbaroʻ, darbadar kabi.

„Qoidalar “ning 54-bandida rus tilidan aynan tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar chiziqcha bilan yozilishi haqidagi imloviy maʼlumotlar berilgan:

Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi

„Qoidalar “ning 55-bandida yuklamalarning chiziqcha bilan yozilish imlosi haqida quyidagi maʼlumotlar berilgan:

chi, -a, (-ya), -ku, -u(-yu), da, e, ey (yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qoʻy-e, yashang-e, oʻgʻlim-ey, keldi-yey kabi.

Ammo –mi, oh, (-yoh), ov (-yov), -gina (-kina, -qina) yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: keliboq, oʻziyoq, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqqina kabi. Lekin –gina, kina kabi.

„Qoidalar “ning 56 – bandida tartib sonlarning yozilish imlosi haqidagi maʼlumotlar berilgan:

Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: 7-sinf, 5-„A“ sinfi, 3-, 7-, 8-sinf oʻquvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

AJRATIB YOZISH IMLOSI

Yuqorida aytilgan fikrlar boʻyicha qoʻshib yozish yoki chiziqcha bilan yozish imlolarining asosiy xususiyatlari tavsiflandi. Bu bobda esa ajratib yozish imlosining asosiy xususiyatlari tavsiflanadi. Imlodan foydalanuvchi qoʻshib yozish bilan ajratib yozishda kamchiliklarga yoʻl qoʻysa, nutq faoliyatidagi asosiy axborot berish masalasi toʻgʻri amalga oshmaydi.

Demak, ajratib yozish malakalarini shakllantirish ham asosiy imloviy masalalardan biri ekanligini eʼtirof etish joizdir.

„Qoidalar “ning 57-bandida qoʻshma feʼllarning qismlari ajratib yozilish imlolari haqida maʼlumot berilgan:

qoʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, taʼsir et, tomon boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

„Qoidalar “ning 58-bandida koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼl mustaqil feʼldan ajratib yozilish imlosi haqidagi maʼlumotlar berilgan: aytib ber, olib koʻr, soʻrab koʻr, koʻra qol, bera boshla, yiqila yozdi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil feʼl bilan yordamchi feʼl orasida tovush oʻzgarishi boʻlsa, bunday qismlar qoʻshib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

„Qoidalar “ning 59-bandida koʻmakchilarning ajratib yozilish imlosi haqida maʼlumot keltiriladi:

Koʻmakchi ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun boʻyi kabi. Lekin bilan koʻmakchisining –la shakli, uchun koʻmakchisining –chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen- chun kabi.

„Qoidalar “ning 60-bandida ayrim soʻzlarning oʻzidan oldingi va oʻzidan keyingi soʻzdan ajratib yozilish imlosi haqida maʼlumot beriladi: hamma, har, hech, bir, hay, u, bu, shu, oʻsha soʻzlari oʻzidan oldingi va oʻzidan keyingi soʻzdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay

kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, hay so'zi yo'q, yer so'zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

„Qoidalar“ning 61-bandida sifatdan oldin kelgan belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi so'zlarning ajratib yozilish imlosi haqida ma'lumot berilgan:

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.

„Qoidalar“ning 62-bandida murakkab son qismlarining ajratib yozilish imlosi haqida ma'lumotlar keltirilgan: murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

„Qoidalar“ning 63-bandida –dan, ga tipudagi konstruksiyalarning yozilish imlosi to'g'risidagi ma'lumot berilgan: yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi: yildan yilga farovonlik oshib bormoqda.

„Qoidalar“ning 64-bandida belgining ortiq darajasini bildiruvchi so'zlar ajratib yozilish imlosi haqida ma'lumot keltirilgan:

Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

„Qoidalar“ning 65-bandida izofali birikmalarning bir-biridan ajratib yozilish imlosi haqida ma'lumot keltiriladi:

Izofali birikmalar ajratib yoziladi: Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: dardi bedavo, nuqtai nazar, tarjimai hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlardan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

Bosh harflar imlosida hozirgi o'zbek adabiy tilida juda ko'p muammolar bor. Faqat atoqli otlar bosh harflar bilan yoziladi degan imloviy qoida bilan to'liq bosh harflar imlosini hal qilib bo'lmaydi. Shu sababdan ham bosh harflar imlosi muammosiga mazkur „qoidalar“ning 66-74 bandlari bag'ishlanadi. Quyida mazkur qoidalar mazmuni va ularga aloqador misollar bilan yuqoridagi bandlar tavsiflanadi.

„Qoidalar“ning 66-bandida kishilarning ismi, familiyasi va taxallusiga doir imloviy qoidalar haqida ma'lumot beriladi: kishilarning ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar O'rinova, Muhabbat Majidova, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammad Sharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov kabi.

„Qoidalar“ning 67-bandida joy nomlarining bosh harf bilan yozilish imlosi haqida ma'lumot beriladi: joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi, (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Pomir (tog'), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

„Qoidalar“ning 68-bandida yulduzlar, sayyoralar va boshqa osmon jismlarining bosh harflar bilan yozilish imlosi haqida ma'lumot beriladi:

Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. yer, quyosh, oy turdosh otlari ham sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

„Qoidalar“ning 69-bandida barcha obyektlar va transport vositalarining nomlari bosh harflar bilan yozilishi imlosi to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi: madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari,

sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: „Tong“ (mehmonxona), „Saodat“ (firma), „Navro'z“ (xayriya jamg'armasi), „Kamalak“ (matbaa birlashmasi), „G'uncha“ (bog'cha), „Botanika“ (sanatoriy), „Paxtakor“ (stadion), „Qutlug' qon“ (roman), „Dilorom“ (opera), „Tanovar“ (kuy), „Ozodlik“ (Haykal), „Jasorat“ (medal), „Sino“ (sovutgich) kabi.

„Qoidalar“ning 70-bandida muhim tarixiy sana va bayramlarning bosh harf bilan yozilish imlosi haqidagi ma'lumot keltiriladi: muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.

„Qoidalar“ning 71-bandida davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning va boshqa tashkilotlarning nomlaridagi bosh harflarning yozilish imlosi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi:

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnologiyalar markazi, Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti kabi.

„Qoidalar“ning 72-bandida davlatning oliy darajali mukofotlarining bosh harf bilan boshlanishi haqidagi ma'lumot berilgan:

Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: O'zbekiston Qahramoni (unvon), Oltin Yulduz (medal).

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: „Sog'lom avlod uchun“ (orden), „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi“ (faxriy unvon), „Matbaa alochisi“ (nishon) kabi.

„Qoidalar“ning 73-bandida gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanish imlosi to'g'risida ma'lumot berilgan: gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa kichik harf bilan yoziladi: „Bu men“, - qo'rqibgina javob berdi (O.Yoqubov).

2) xat boshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

mazkur ishni ko'rib chiqish uchun huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) rus tilidan kirgan so'zlar („O'zbek tili“ darsligidan).

„Qoidalar“ning 74-bandida tarkibli nomlarni bosh harflar bilan yozilish imlosi haqidagi ma'lumotlar berilgan:

Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi.

Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

KO'CHIRISH IMLO QOIDALARI

Bo'g'in ko'chirish qoidalarini ilgarigi (rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi) imlodagi aniq bir mezon asosida emas edi. Rus-kirill grafikasidagi bo'g'in ko'chirish qoidalarini slavyan tillari xususiyatlarini ko'proq mujassamlashtirgan edi.

Shuni hisobga olib, lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi imlosida bir qancha mukammalliklarga erishildi. Quyida bo'g'in ko'chirish qoidalarining keyingi mukammallashtirilgan variantidagi qoidalar mazmuni bo'yicha tavsifiy ma'lumot berishni joiz deb hisoblaymiz. Ayrim holatlarda bo'g'in ko'chirish qoidalarini buzilganda, bu kamchilikni yengilroq xato deb, qo'pol kamchilikka yo'l qo'yamiz. Ko'pgina didaktik manbalarda bo'g'in ko'chirish qoidalarini haqidagi tavsifiy va amaliy ko'nikmalarning xususiyatini tavsiflovchi topshiriqlar berilmaydi.

„Qoidalar“ning 75-bandida ko'p bo'g'inli so'zlarning bo'g'in (sotr) ko'chirish qoidalarini berilgan: ko'p bo'g'inli so'zning oldingi sotrga sig'may qolgan qismi keyingi sotrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si – fatli, pax – takor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inida qoldiriladi: va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om kabi.

„Qoidalar“ning 76-bandida oxirgi bo'g'inini bir harfdan iborat bo'lgan holatdagi bo'g'in ko'chirish holatlari haqida ma'lumot beriladi:

So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'inini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi sotrga qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi sotrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

„Qoidalar“ning 77-bandida o'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegaralari haqidagi imlo ma'lumotlari beriladi:

O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi sotrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

15) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi sotrga qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi sotrga ko'chiriladi: silin-drik kabi

„Qoidalar“ning 78-bandida bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasini sotrga ko'chirish qoidalarini haqida ma'lumot beriladi:

Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi

„Qoidalar“ning 79-bandida bosh harflardan iborat qisqartma so'zlardagi imloviy bo'g'in ko'chirish qoidalarini haqida ma'lumot berilgan:

Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar sotrdan sotrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, SamDU, 16, 245, 2994, XIX kabi.

„Qoidalar“ning 80-bandida harfdan iborat qisqartmalar bo'yicha sotrdan sotrga ko'chirish imloviy qoidalarini haqida ma'lumot beriladi:

Masalan, 5-„A“ sinf, X „V“ guruhi, 110 gr, 15 ga, 105, 25 sm, 90mm kabi.

„Qoidalar“ning 81-bandida atoqli ot tarkibiga kiradigan raqamlar nomdan ajratilmay sotrga ko'chirish imlo qoidalarini haqida ma'lumot beriladi:

Atoqli otlar tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi sotrga ko'chirilmaydi: „Navro'z- 92“ (festival), „O'qituvchi –97“ (ko'rik-tanlov), „Andijon-9“, „Termiz-16“ (g'o'za navlari), „Boing-767“ (samolyot), „Foton-774“ (televizor) kabi.

„Qoidalar“ning 82-bandida ismning birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirish qoidalarini imlosi haqida ma'lumot beriladi:

A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismning va toq ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, va. b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilarda) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Axmedov B.A. Gosudarstvo kochlievix uzbekov. M., 1965.

Baskakov N.A. Vvedeniye v Izucheniye tyurskix yazikov. M. 1969.

Batmanov I.A. Yazik yeniseyskix pamyatnikov drevnetyurskoy pismennosti. Frunze, 1959.

Borovkov A.K. Leksika Sredneaziatskogo tefsira XII —XTII vv. M., Izd — vo «Nauka», 1963.

Blagova G.F. Tyurskoye skloneniye v arealno— istoricheskom osveshenii. M., fed —vo «Nauka», 1982.

Dadabayev X. Obsiistvenno —politicheskaya i spetsialnaya — ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI —XIY vv. Tashkent, Izd — vo «Fan», 1991.

Drevnetyurskiy slovar. L., Izd — vo «Nauka». 1969.

Iziskanniy dar tyurskomu yaziku (Grammaticheskiiy traktat XIY v na arabskom yazike). Vvedemye, leksiko—grammaticheskiiy ukazatel E.I. Fazilova i M.T.Ziyayevoy. Tashkent, Izd —vo «Fan», 1978.

Ishoqov M., Raxmonov N., Sodiqov O., Tgʻaliyev B. gʻalimas obidalar (Oʻzbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari boʻyicha tadqiqotlar). Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1989. Karimov K. Kategoriya padeja. v yazike «Kutadgu bilig». Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kand. Filol. Nauk. Tashkent, 1962.

Karimov Q. Ilk badiiy doston. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1976.

Maxmudov S.YE. Pamyatniki drevnetyurskoy pismennosti. M. —L., Izd —vo «Nauka», 1951.

Maxmudov S.YE. Devoni lugʻotit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. I — III. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1960 — 1963.

(Maxmudov S.YE. Devoni lugʻatit turk. Indeks —lugʻat. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1967.

Maxmudov Q. Alimad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari haqida. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1972.

Mahmudov Q. XIII—XIY asr turkiy yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1990.

Meliorantskiy P.M. Alish ilol oʻturalik oʻturalik. SPb., 1900,

Nadjip E.N. Istoriko —sravnitelniy siovar tyurskix yazikov XIY veka. Kniga. I. M., Izd-vo «Nauka», 1979.

Nadjip E.N. Issledovaniya po istorii tynrskix yazikov XI — XIY w. M., Izd-vo «Nauka», 1989,

Nasilov V..M. Yazik orxono — yeniseykix painyatnikov. M., Izd~ vo «Nauka» 1960.

Nasilov V-M. Yazik tyiirskix pamyafjiikov "uygurskogo pisma XI-XY vv. M, Izd-vo «Nauka», 1974

Rabg'uziy Nosimddin Burhonuddin. Qissasi Rabg'uziy 1 — Tl, Toshkent. «Yozuvchi» nashriyoti, 199(3-1991.

Ralimoiiov N. Turk xoqonligi. Toshkent A.Qodiriy nornidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.

Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, «Fan» nasliriyoti, 1971.

Ryasyanen M. Materialii po istoriclieskoy fonetike tyiirskix yazikov. ., Izd — vo «Nauka», 1955.

Sodiqov Q. Eski uyg'ur yozuvi. Toshkent G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

Sodiqov Q. Ajdodiarimiz bitigi. Toshkent. «Fan» nashriyoti, 1990.

Sravnitelno— istoticheskaya grammatika fyurskix yazikov. Fonetika. M., Izd —vo «Nauka»F 1984.

«Tarjumon»— XIY asr yozma obidasi. (nashrga tayyorlovchi A.Yunusov) Toshkent. «Fan» nasiiriyoti, 1980.

Tursunov V. g`iinboyev B. g`zbek adabiy tili tarixi jPedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qg`llanma). Toshkent, «O'qituvchi» nashrlyoti, 1982.

Tg`xliyev B. Yusuf Xos Hojibning «Qntadg'u bilig» asari. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoi, 1991,

